



TA'LIM SOHASINI BYUDJETDAN MOLİYALASHTIRISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Eshmatova S.SH

Toshkent shahri Puchon universiteti Ta'lim
muassalarini boshqarishning 2-bosqich magistranti

7ora999@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Pulatova M.B**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi dotsenti PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ta'lim sohasini byudjetdan moliyalashtirish amaliyoti bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Ta'limni moliyalashtirish ta'lim tizimining qulayligi, sifati va rivojlanishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqola ta'lim sohasidagi budjet mablag'larining roli va uning ta'lim dasturlari, infratuzilmalarga ta'sirini o'rganadi. Budjet mablag'laridan samarali foydalanish tamoyillari, adolatli taqsimlash va barqaror moliyalashtirish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Moliyalashtirish, budjet, ta'lim tizimi, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с практикой бюджетного финансирования сферы образования. Финансирование образования играет ключевую роль в обеспечении доступности, качества и развития системы образования. В данной статье рассматривается роль бюджетных средств в сфере образования и их влияние на образовательные программы и инфраструктуру. Обсуждались принципы эффективного использования бюджетных средств, вопросы справедливого распределения и устойчивого финансирования.



Ключевые слова: Финансирование, бюджет, система образования, развитие.

Kirish: Hozir kunda davlat budjet va mahalliy budjetlarning xarajatlar qismining o'sishi va daromadlar qismiga kelib tushayotgan tushumlarning bir maromda tushmasligi natijasida faqatgina mahalliy budjetlarning birinchi ehtiyojli xarajatlari amalga oshirilmoqda. Ta'lim muassasalari, xususan maktab ta'limi muassasalarining texnik jihozlash va binolarini ta'mirlash ishlarida ajratilgan mablag'lar miqdorining kamligi ushbu tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlay olmayapti. Holatni inobatga olgan holda maktab ta'limi muassasalarida juda katta imkoniyat mavjud bo'lgani holda o'zlarini maxsus mablag'lar manbalarini yaratishlari zarur. Qo'shimcha yaratilgan manbalardan olingan mablag'lar natijasida, maktab ta'limi muassasalari ayrim xarajat moddalariga budjetdan ajratilgan mablag'larni yetishmaydigan qismini qoplash uchun tadbirlar o'tkazishlari mumkin.

Asosiy qism: Maktab ta'limi muassasalarida qo'shimcha mablag'lar manbalarini tashkil qilish mumkinmi degan savolga, mana shunday javob berish mumkin. Har qanday yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarda qo'shimcha daromad manbalarini yaratish imkoniyati mavjud, buning uchun esa quyidagilarning bajarilishiga erishish zarur bo'ladi:

1. Har bir tashkilot raxbari bozor iqtisodi qonun-qoidalarini chuqur tushungan bo'lishi zarur.
2. Tasdiqlangan smeta bo'yicha ajratilgan budjet mablag'larini faqat belgilangan maqsadlar uchun ishlatish zarur.
3. Ta'lim muassasasining barcha zarar bilan ishlaydigan bo'lim va faoliyatlaridan voz kechish zarur.



4. Kommunal xizmat xarajatlari bo'yicha bo'ladigan barcha xarajatlarni maqsadli amalga oshirilishini ta'minlash kerak.

Aynan mana shu tamoyillarga amal qilgan holda hozirgi budjet mablag'lari tanqisligi sharoitida budjet mablag'larini tejash mumkin va shu asosida muassasani moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun poydevor yaratilishi mumkin. Bu o'z navbatida ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarini kuchaytirishga asos hisoblanadi. Bundan tashqari maktab ta'limi muassasalari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ruhsati bilan o'z ish faoliyatida o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Mana shu holatda ushbu muassasani mablag' bilan shu tashkilotning o'zi bevosita ta'minlashi mumkin. Maktab ta'limi muassasalari har yili joriy yil boshida maxsus mablag'lar smetasi tuzib, yuqori tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangan smetaga asosan daromadlarning asosiy qismi muassasaning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Maktab ta'limi moliyasining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi «Budjetdan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 414-sonli qarori bilan mustahkamlandi. Ushbu huquqiy me'yoriy asoslarning maktab ta'limi moliyasini tashkil etish va boshqarishga ta'siri, uning ijobiy jihatlari va mavjud muammolarini alohida ko'rib chiqish hozirgi kunda juda muhim hisoblanadi.

Joriy yil yanvar–mart oylarida O'zbekiston byudjetidan davlatga qarashli bog'chalarga 3 trillion so'm, maktablarga 10,4 trillion so'm, oliy ta'lim muassasalariga 1,6 trillion so'm ajratildi. Bu haqda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobot berdi.


2024-yilning dastlabki uch oyida davlat byudjetidan ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismi — 16 trillion so'mini (47,2 foiz) ta'lim tizimi muassasalarini saqlash va



rivojlantirish xarajatlari tashkil etgan. Bu mablag‘ 2023-yilning mos davridan qariyb 3 trillion so‘mga ko‘p.¹

Bog‘chalar xarajatlari

Hozirda O‘zbekistonda 26 ming 315 ta nodavlat, 6 ming 780 ta davlat bog‘chalari mavjud bo‘lib, ularda 2 million 267 ming nafar bolalar tarbiyalanmoqda (jami qamrov 74,3 foiz).1-rasm




2024-yil I choragida davlat byudjetidan maktabgacha ta’lim tizimiga jami **3 trillion 19 milliard so‘m** (2023-yil mos davridagidan 474,8 milliard so‘m ko‘p) mablag‘ ajratildi. Bunda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari uchun **1 trillion 263 milliard so‘mni**, yagona ijtimoiy to‘lovlari uchun **314,5 milliard so‘mni** tashkil etdi. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan bog‘chalarga byudjet subsidiyalari

<https://daryo.uz/2024/06/03/i-chorakda-ozbekiston-byudjetidan-talimga-qancha-mablag-ajratilgani-ochiqlandi>



uchun **751 milliard so‘m**, oziq-ovqat xarajatlariga **450,2 milliard so‘m**, boshqa xarajatlar uchun **241,1 milliard so‘m** yo‘naltirilgan.**2-rasm**




Maktab va o‘rta maxsus ta’lim xarajatlari

Umumta’lim sohasiga yanvar–mart oylarida **10,4 trillion so‘m** (2023-yil mos davridagidan 1,8 trillion so‘m ko‘p) mablag‘ ajratildi.

“Bunda, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun **7,6 trillion so‘m**, yagona ijtimoiy to‘lov xarajatlariga **1,9 trillion so‘m** mablag‘lar yo‘naltirildi. O‘z navbatida sohaga ajratilayotgan mablag‘larning yildan yilga o‘sib borishiga o‘qituvchilarning mehnatiga haq to‘lash miqdorlarining oshirib borilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. 2024-yilning 1-choragida kadrlar tayyorlash sohasiga jami **2,6 trillion so‘m** yoki 2023-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 648,7 milliard so‘mga ko‘p mablag‘ yo‘naltirildi. Ushbu mablag‘larning **1,4 trillion so‘mi** ish haqi va ish haqiga ajratmalar uchun sarflangan”,— deyiladi vazirlik hisobotida.**3-rasm**



Умумий таълим соҳасига 2022-2024 йиллар
1-чорагида ажратилган маблағлар
(млрд.сўмда)



Qayd etilishicha, kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarning **730,3 milliard so'm** qismi (28,3 foiz) o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarini saqlash hamda ushbu yo'nalishlarda ta'lim oluvchilarga qulay sharoitlar yaratilishini ta'minlash uchun sarflangan.

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari, ish haqiga ajratmalar uchun **616,3 milliard so'm** hamda boshqa xarajatlar (IV guruh xarajatlari) uchun 114 milliard so'm mablag' ajratilgan.

Ta'lim har bir mamlakat va butun jamiyat taraqqiyotida asosiy o'rin tutadi. Biroq, sifatli va qulay ta'limni ta'minlash uchun ta'lim sohasida moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash zarur. Ta'lim sohasida byudjetdan moliyalashtirish amaliyoti ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi, kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish ish beruvchilarning takliflari hamda



“Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism: Ta’lim sohasida davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish, moliyaviy resurslar xavfsizligini ta’minlash muammolariga katta e’tibor qaratilmoqda. Mavjud muammolar va istiqbollardan kelib chiqib, ta’lim sohasida byudjetdan moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotchilar, pedagoglar va davlat organlari uchun mumkin bo‘lgan tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Budjet tashkilotlari budjet mablag‘larining asosiy iste’molchisi hisoblanib, Davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budjetdan moliyalashtiriladi.

Budjet tashkilotlari bo‘ysunuviga ko‘ra, respublika budjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) budjetlardan mablag‘ bilan ta’minlanadilar, ularning joriy faoliyati budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlashning o‘rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi. Bunda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o‘z moliyaviy rejalarini xarajatlar smetasi shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar. Xarajatlar smetasi – budjet tashkilotining unga ajratilgan budjet mablag‘larining hajmi, maqsadli yo‘nalishi va yil choraklari (har bir chorakning oylari) bo‘yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjatdir. Ta’lim tizimini moliyalashtirishning ikki asosiy manba: davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan shakllanadi.

Respublika budjeti xarajatlarini dinamikasini ko‘rib chiqamiz. Davlat budjetining 2022 yil xarajatlari 2021 yilga nisbatan 48 434,9 mlrd so‘mga oshgan holda 236 692,0 mlrd so‘mga ijro etildi.²

²(Fuqarolar uchun budjet, 2022) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://daryo.uz/2024/06/03/i-chorakda-ozbekiston-byudjetidan-talimga-qancha-mablag-ajratilgani-ochiqlandi>
2. (Fuqarolar uchun budget, 2022) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayorlandi.
<https://shorturl.at/zAY45>